

ZAMONAVIY TA'LIM ISTIQBOLLARI

Mamatkulova Nasiba Maxamadjonovna

IIV Sirdaryo akademik litseyi
E-mail: mamatkulova1984@internet.ru

Annotatsiya: maqlolada hozirgi davrda masovafiy va a'nanaviy ta'limging afzallikkari, o'ziga xos jihatlari, shuningdek, kamchiliklari haqida aytilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *internet tarmog'i, onlayn xizmat, elektron kutubxona, a'nanaviy ta'lum, masovafiy ta'lum.*

PROSPECTS FOR MODERN EDUCATION

Mamatkulova Nasiba Makhamadjonovna

Syrdarya Academic Lyceum of the Ministry of Internal Affairs
E-mail: mamatkulova1984@internet.ru

Abstract. the article mentions the advantages, peculiarities, as well as disadvantages of distance and non-traditional education in the present period.

Keywords: *internet network, online service, electronic library, traditional education, distance education.*

Taraqqiyotimizning rivojlanishi kun sayin ortib bormoqda. Ayniqsa yurtimizda bu sohaga keng yo'l ochib berilgan: zamonaviy axborot, telekommunikatsiya va texnologiyalarning kun sayin o'rni va sifati eng yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Ayni paytda hayotimizni internetsiz tasavvur qilolmaymiz. Shubhasiz, internet hayotimizning bir bo'lagiga aylanishga ulgurdi. Internet kirmagan bironata xonardon qolmagan.

Internet tarmog'idan hamma o'zining maqsadi va xohishiga qarab foydalanadi. Internet asosida onlayn savdo, onlayn xizmat, elektron kutubxonalar, onlayn ekuskursiya va onlayn ta'lum tizimlari zamonaviy axborotning, zamonaviy ko'rinishidir.

Ta'lum tizimida ham yangi bosqichlar va o'zgarishlar katta. Ayni vaqtida jahon satandartlariga mos bo'lgan tartibda yana bir yangi masofaviy ta'lum yo'lga qo'yildi. Masofaviy o'qitish usuli an'anaviy shaklidan farq qiladi. U o'quvchi -talabalarni o'ziga qulay vaqtida joyda va sharoitda o'qitish imkonini beradi. Masofaviy o'qish usuli mutaxassis o'qituvchi (pedagog)larning oldiga yangidan-yangi dolzarb vazifalarni qo'yemoqda. Chunki, o'quv materiallarini to'ldirib borish, ijodiy yondashuv hamda yangiliklar bilan malakasini oshirishlari va ko'rsatkichlarni jahon ilmiy yutug'lari bilan muvofiqlashtirib borishlari talab etimoqda.

Bu o'qitish usuli ta'lum talabiga asosan o'quvchi va o'qituvchining o'z ustida ishlashini tashkil etish, ko'proq bilim olishga intilishi, kompyuter bilan mustaqil ishlash va olgan bilimlaridan ijodiy foydalanishini ta'minlaydi hamda olingan bilimlar maxsus o'quv uslubiy nashrlar, testlar bilan tekshirilib to'ldirilishi mumkin.

Masofaviy ta'lum bu o'qituvchi va o'quvchi bir biri bilan masofa yoki vaqt orqali ajratilgan sababli informatsion texnologiyalardan foydalanilgan ta'lum turi. Bu ta'lum turini bir necha modellari mayjud, ular masofaviy ta'lum tashkil, qilinishiga sabab bo'lgan vaziyatlari bilan farqlanadi: geografik sabablar (mamlakat maydoni, markazlardan geografik uzoqlashgan regionlar mavjudligi), mamlakatni kompyuterlashtirish va informatsiyalashtish darajasi, transport va kommunikatsiyalar rivojlanish darajasi, masofaviy ta'lum uchun mutaxasislar mavjudli , ta'lum sohasida informatsion va kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish darajasi mamlakatning ta'lum sohasidagi odatlari.

Masofaviy ta'limging quyidagicha qulayliklari mavjud:

1. Dars jadvalni qulayligi.

2. O'quvchi o'ziga ma'qul bo'lган vaqtida qatnashishi mumkin.
 3. Qulay foydalanish manzillar: o'quvchi internet kafe, uy, mehmonxona, ish joyida va boshqa joylardan o'quv jarayoniga qatnashishi mumkin.
 4. Qulay o'qish tempi. Ta'lif o'quvchilar yangi bilimlarni tushunish tempida o'tkaziladi.
 5. Qulay o'quv reja. O'quv rejani talabalarga individual va davlat ta'lif talablariga mos holatda tashkil qilish mumkin.
 6. Ma'lumotlar bazasini to'planishi.
 7. Ko'rgazmali qulayliklari.
 8. Multimediya imkoniyatlaridan to'liq foydalanish imkoniyati.
 9. Malakali o'qituvchilarni tanlab ta'lif jarayoniga jalb qilish.
- Iqtisodiy yutuqlar va afzalliklarga quyidagilarni kiritish mumkin:
- 1.Cheksiz masofaga ta'lif berish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtaсидаги masofa hech qanday ahamiyatga ega emas.
 2. Ish jarayoniga xalaqit bermasligi.
 3. O'quvchilar sonini oshirilishi. Masofaviy ta'lif texnologiyalarni to'liq qo'llagan o'quv muassasa talabalar soni 2-3 barobar oshishi mumkin.

Masofaviy ta'lif kursida ikkinchi oily yoki qo'shimcha ma'lumot oluvchilar, malaka oshirish va qayta tayyorgarlik o'tash istagida bo'lganlar, ikkinchi parallel ma'lumot olishni xohlagan talabalar markazdan uzoqda, kam o'zlashtirilgan mintaqalar aholisiga, jismoniy nuqsonlari bo'lgan shaxslar, armiya xizmatida bo'lgan shaxslar, erkin ko'chib yurishi cheklangan shaxslar va boshqalar qatnashishi mumkin.

Yosh cheklanishlari yo'qligi. O'qishga jalb qilinuvchilarning yosh cheklanishlarini istisno qilinadi. Ammo masofaviy ta'lifda salbiy tomonlari ham borligi haqida aytish lozim. Eng katta muammo bu internet tezligining sustligidir.

Yuqoridagilarni xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lif jarayonini axborotlashtirish, jamiyatni axborotlashtirish elemetnlaridan biri hisoblanadi. Bunda jamiyatning har bir a'zosi ma'lumot va bilimlarni olishga yo'l ochib beradi. Faollik bilan malakasini oshirib faoliyat bazasini tezkor o'zgartiradi. Shaxsning intellectual va ijodiy qulayliklarini rivojlantiradi.

Hozirgi sinovli vaziyatda Koronavirus Covid-2019 pandemiyasi sabab, yurtimizda ham oliy va o'rta ta'lif muassasalarini masofaviy ta'lif tizimiga o'tildi. Uyda qolgan holda o'quv rejalar o'z vaqtida ketmoqda. Televideniyada ham onlayn maktablar tashkil qilindi. Sinf rahbarlarining nazoratida onlayn darslar kuzatib borilmoqda. Oliy o'quv yurti talabalari ham masofaviy ta'lif tizimida bilim olishini davom ettirmoqdalar. Keyinchalik esa an'anaviy ta'lif tizimidan farqli ularoq masofaviy ta'lif tizimi yanada takomillashib, o'quv rejalariga kiritilishi mumkin.

Yetakchi mutaxasislar bu tizimning yutuq va kamchiliklarini taqqoslab, o'quvchi va talabalar o'rtaaside so'rovnomaga o'tkazish yo'li orqali masofaviy ta'lif tizimida qolish yoki to'xtatilishini muhokama qilinishi kerak.

Ta'lif tizimining har qanday usuli o'quvchi va talabalarga yetarlicha bilim va ko'nikmalarni berishiga xizmat qilishi kerak.

Zero, ta'lif tizimining kelajagiga e'tibor bergen davlat, rivojlanish yo'lidan aslo to'xtamaydi!

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Azizxo'jayeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2003
2. Ishmuhammedov R.J. Innovatsiya texnologiyalari yordamida ta'lif samaradorligini oshirish yo'llari. – Toshkent, 2004
3. Roziqov O., Og'ayev S., Mahmudov M. Ta'lif texnologiyasi. – Toshkent, 1999.

